

Sana: “ ” _____ 201__-yil. Sinflar: 7-“ ”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: German qabilalari va Rim imperiyasi

DARSNING MAQSADI:

a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga German qabilalari va Rim imperiyasi haqida ma’lumot berish;

b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, tarixshunoslik atamalari lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Xalqlarning buyuk ko‘chishlari. Milodiy IV—VI asrlarda Yevropani xunn qabilalari boshlab bergan “Xalqlarning buyuk ko‘chishlari” jarayoni qamrab oladi. Ushbu jarayonning qator sabablari bo‘lgan.

German qabilalari va ularning mashg‘ulotlari. Rim imperiyasining shimoli-sharqiy chegaralari bo‘ylab joylashgan varvar qabilalari II—IV asrlarda ham

urug'chilik jamoasi darajasida yashar edilar. Qadimgi german qabilalari (franklar, vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar) Reyn va German qabilasi. Elba daiyolari havzasida joylashganlar Qadimgi germanlar tarixi haqidagi boy ma'lumotlarni Yuliy Sezarning “*Galliya urushi haqida xotiralar*” va rim tarixchisi Tatsitning “*Germaniya*” asarlarida uchratamiz

Germanlarning ijtimoiy tuzumi. Germanlar jamoasi davlat vujudga elguniga qadar urug'chilik bosqichini boshdan kechirgan. IV asrda germanlarda mulkiy tengsizlik kuchayib jamoalar boylar va kambag'allarga ajrala boshlaydi, jamoalarda zodagonlar, erkin kishilar va yarim ozod kishilar toifalari shakllanadi. Mulkiy tabaqalanish natijasida germanlarda **konung**, ya'ni zodagonlar yo'l boshchisi shakllanib, uning mavqei kuchaya boradi

German qabilalari IV—V asrlardan keng hududlarni nazorat qiluvchi **qabila ittifoqlariga** birlasha boshlaydi. **Alemann, got, frank** qabila ittifoqlari bir necha yuz ming kishidan iborat bo'lgan. Chegara hududlaridagi ayrim qabila boshliqlari Rim noiblariga yollanma harbiy xizmatga o'z boshlaydilar. Bu harbiy bo'linmalar rim qo'shinlari yurishlari paytida alohida jangovar birlik sifatida qatnashgan. **Rim imperiyasiga bosqinlar.** Zaiflashib qolgan Rim qo'shni varvarlar hujumini to'xtata olmaydi. Qulchilik zulmidan aziyat chekkan mahalliy aholi esa german qabilalariga qarshi chiqmay, ba'zida ular tomoniga o'tib ketadi. V asr boshlarida Pireneya yarim oroli va Gallianing bir qismida dastlabki varvarlar davlati Vestgot qirolligi **tashkil topdi.**

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar: 1. “Xalqlarning buyuk ko'chishlari”ning asosiy sabablarini sanab o'ting

2. Xaritadan german qabilalari yashagan hududlarni ko'rsating. Yozuvsiz xaritaga german qabilalari yashagan hududlarni tushiring.

O'quvchilarni baholash: O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': _____

Sana: “ ” _____ 201__-yil. Sinflar: 7-“ ”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Franklar. Franklar davlatining tashkil topishi

DARSNING MAQSADI:

a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga Franklar davlatining tashkil topishi haqida ma’lumot berish;

b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)	Ajratiladigan vaqt (reglament)
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Fränk qabilàlari. Buyuk ko‘chishlar boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar Reyn daryosi quyi oqimidagi hududlarda yashaganlar. G‘arbiy Rim imperiyasining inqirozidan keyin Gálliyadà rim noibi **Egidiy** mustaqil knyazlik tuzadi. 486-yilda Xlodvig franklar davlatiga asos solidi.

X asrdan Parij atrofidagi viloyat **Li de Frans** davlat nomiga asos bo‘ladi va u **Fransiya** deb atala boshlandi.

Franklarda xristianlikning qabul qilinishi. Varvar qabilalari yo‘lboshchilari ichida birinchi bo‘lib Xlodvig xristianlikni Rimdan qabul qiladi.

Frànkjàrdà ijtimîiy munosàbàtlàr. Frànkjàr istilo qilgàndà hududlãrdà rimlik quldorlãrning hàshàmàtli sãroylãri, ulkàn yer-mulklãri sàqlànib qolgàn. Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi paytida qirollar — alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga yirik yer-mulk — **benefitsiyalar** taqdim etganlar.

Benefitsiy (lot.) — *senorning o‘z vassaliga harbiy xizmati evaziga in‘om etgan yer-mulk. Sharqda u iqto‘ deb nomlangan. Senor (lot. — katta) — o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo‘lgan yer egasi. Vassallik — G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bir feodalning boshqa feodalga bo‘ysunish tartibi*

Davlatning paydo bo‘lishi. Shimoliy Galliyada tashkil topgan frank qirolligi Xlodvigning vorislari davrida Burgundiyani va Provansni istilo qiladi. Franklar germanlarning **tyuring, alemann, bavar** qabilalarini ham bo‘ysundirib, ularni har yili o‘lpon to‘lashga majbur etadilar. Xlodvig davridayoq mamlakat viloyatlarga bo‘linib, ularni qirol tayinlagan **graflar** boshqara boshlaydi.

“Sali haqiqati”. Xlodvig buyrug‘iga binoan yozilgan franklarning an‘anaviy odatlari to‘plami Yevropadagi eng mashhur odat huquqlari yodgorligiga aylanadi. U “Sali haqiqati” deb nomlangan, to‘planning nomi unga faqat franklarning sali qabilasi qonunlari kiritilganligini anglatadi. “Sali haqiqati” franklar- da qirol hokimiyatining kuchayganini ko‘rsatadi.

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o‘quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Frank qirolligining qanday tashkil topganini hikoya qilib bering.
2. Mulkiy tabaqalanishning kuchayish sabablarini ko‘rsating.
3. Franklarda xristianlikning qabul qilinishi qanday oqibatlarga olib keldi?

O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o‘qib-o‘rganish, qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O‘TIBDO‘: _____

Ushbu konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz*
variantini olish uchun




+998946281992 telegram raqamiga yoki
@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

Narxi 20 000 so'm

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet*** orqali
BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI! Telefon qilinganda yoki sms
yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

*Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web
saytda tanishingiz mumkin.*

 Telegram kanal: @uzmaktab
Web sayt: www.hasanboy.uz

* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz